

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tadbirkorlik va boshqaruv” fakulteti
“Axborot texnologiyalari” kafedrasining navbatdan tashqari yig‘ilish**

BAYONNOMASI № 20

“21” may 2024 yil

Denov tumani

Qatnashdilar: Kafedra mudiri T. Rajabov va kafedra o‘qituvchilari.

KUN TARTIBI:

1.O‘qituvchi Xolbekov Abdusattorning ochiq dars muhokamasi.

ESHITILDI:

Kun tartibiga kiritilgan masala yuzasidan kafedraning navbatdan tashqari yig‘ilishida “Axborot texnologiyalari” kafedra mudiri T.Rajabov so‘zga chiqib, o‘qituvchi A.Xolbekovning 1-bosqich 11-P va 12-P-2023 guruhlarida “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanidan “Media maydon va internet imkoniyatlari” mavzusida o‘tkazgan ochiq darsi haqida quyidagilarni bayon qildi: O‘qituvchi A.Xolbekovning ochiq darsi yaxshi tashkil qilinganligini, dars jarayonida darsni mustahkamlash uchun “Kahoot” ta‘lim platformasidan foydalanib darsni innovatsion metodlar asosida olib borilganligini va ochiq dars namunali darajada tashkil etilganligini alohida ta‘kidlab o‘tdi.

O‘qituvchi B.Haqberdiyev ham so‘zga chiqib A.Xolbekovning ochiq dars mashg‘ulotiga o‘zining quyidagi fikrlarini bildirdi: Darsning tashkiliy qismi o‘qituvchi tomonidan yaxshi tashkil etilganligi va o‘qituvchining dars jarayonida to‘liq sensorli monitordan foydalanib dars mashg‘ulotini olib borilganligini alohida ta‘kidlab, tematik reja va dasturga muvofiq slayddan foydalangan holda dars mashg‘uloti olib borilganligi, o‘qituvchi tomonidan dars mavzusi “HEMIS” platformasida qayd etilib, talabalar davomati aniqlanganligini va darsda innovatsion metodlar va savol kartochkalaridan foydalanib dars jarayoni mazmunli olib borilganligini qayd etib dars mashg‘ulotini namunali deb baholadi.

O‘qituvchi D.Pardayeva ham so‘zga chiqib A.Xolbekovning ochiq darsiga o‘zining quyidagi fikrlarini bildirdi: Darsning tashkiliy qismi o‘qituvchi tomonidan yaxshi tashkil etilganligi va o‘qituvchining dars jarayonida media maydon tushunchasi va uning hozirgi jamiyatdagi o‘rni hamda internet tarmog‘i va uning imkoniyatlari haqida talabalarga batafsil tushuntirganligini alohida bayon qilib o‘tdi. Shu bilan birgalikda o‘qituvchi tomonidan barcha talabalarining dars jarayonida faol va e‘tiborli bo‘lishlariga alohida e‘tibor qilib borildi va dars mashg‘uloti qiziqarli va mazmunli olib borildi va ochiq dars jarayonini namunali deb topdi. Yuqoridagi bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib kafedra yig‘ilishi quyidagicha

QAROR QILADI:

- 1.O‘qituvchi A.Xolbekovning 1-bosqich 11-P va 12-P-2023 guruhlarida “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanidan o‘tkazgan ochiq darsi rejaga asosan o‘tkazildi deb hisoblansin.
2. O‘qituvchi A.Xolbekovning “Media maydon va internet imkoniyatlari” mavzusida o‘tkazgan ochiq dars mashg‘uloti namunali deb baholansin.


Kafedra mudiri:

Kotib:



T. Rajabov

J. Shaydullayev





Пробный период Scanitto Pro окончен

Please visit www.scanitto.com

